



ISLOM MADANIYAT MARKAZLARI (MADRASALAR) VA ILMIY AN'ANALAR

Tog'aymurodova Aziza Satdullayevna

togaymurodovaaziza9@gmail.com

Abdullayev Ahmadjon Husniddinovich

Abdullayevahmad120@gmail.com

Denov tadbirkorlik vapedagogika instituti Tarix yo'nalishi talabalari

Annotatsiya: *Islomdagi ilm-ma'rifatga bo'lgan yuksak talabni Qur'oni karimning ilk oyatlaridan boshlab ko'rish mumkin: "Iqro'" – "O'qi!" amri musulmon jamoasining tafakkur, tadqiqot va mushohada madaniyatini shakllantirdi. Islom payg'ambari Muhammad (s.a.v.) ilmni har bir mo'min uchun farz qilingan amal sifatida talqin etib, sahobalarni o'qishga, yozishga, bilim o'rganishga undadi. Shu tariqa ilk islom jamiyatida "so'ngan" ilm yo'q, balki faol ravishda kengayib boruvchi ilmiy muhit yuzaga keldi. Ushbu maqolada islom madaniyati shakllanishida madrasalar va ilmiy markazlarning tutgan o'rnini yoritadi. Unda Bayt al-Hikma, Nizomiya, Al-Azhar, Movarounnahr va Andalusiya ilmiy maktablarning faoliyati, islom ilm-fan tizimining shakllanishi hamda uning Qur'on, Hadis, fiqh, kalom va qadimgi falsafaga tayangan falsafiy ildizlari tahlil qilinadi.*

Kalit so'z: *madrasa, hadis, ma'rifiy ruh, Qohira, al-Azhar, Hayzuroviya, Mir Arab.*

Аннотация: *В исламе высокий спрос на знания и просвещение можно увидеть уже с первых аятов Священного Корана: повеление «Икро» — «Читай!» сформировало культуру мышления, исследования и размышления в мусульманской общине. Пророк Ислама Мухаммад (мир ему и благословение) трактовал знание как обязательное действие для каждого верующего, побуждая сподвижников учиться читать, писать и приобретать знания. Таким образом, в первом исламском обществе не было «угасших» знаний, а возникла активно расширяющаяся научная среда. В данной статье освещается роль медресе и научных центров в формировании исламской культуры. Рассматривается деятельность Байт аль-Хикма, Низамии, Аль-Азхара, научных школ Мавераннахра и Андалусии, формирование исламской системы науки, а также анализируются её философские корни, основанные на Коране, Хадисах, фикхе, каламе и древней философии.*

Ключевые слова: *медресе, хадис, просветительский дух, Каур, Аль-Азхар, Хайзуровия, Мир Араб.*

Annotation: *The high demand for knowledge and enlightenment in Islam can be seen from the very first verses of the Holy Qur'an: "Iqra" – "Read!" This command shaped the culture of thinking, research, and contemplation within the Muslim community. The Prophet of Islam Muhammad (peace be upon him) interpreted knowledge as a duty obligatory for every believer, encouraging the companions to read, write, and seek knowledge. Thus, in the early Islamic society, there was no "extinguished" knowledge, but rather an actively expanding scientific environment emerged. This article highlights the*



role of madrasas and scientific centers in the formation of Islamic culture. It analyzes the activities of scientific schools such as Bayt al-Hikma, Nizamiya, Al-Azhar, Mavarannahr, and Andalusia, the formation of the Islamic system of science, and its philosophical roots based on the Qur'an, Hadith, jurisprudence (fiqh), theology (kalam), and ancient philosophy.

Keywords: *madrasa, hadith, intellectual spirit, Cairo, al-Azhar, Hayzuroviya, Mir Arab.*

Madrasa — oliy o'quv dargohi. Madrasa so'zi arab tilidan „مدرسة“, „مدارس“ – so'zidan olingan bo'lib, lug'aviy ma'noda „o'qish joyi“ yoki „o'qitish joyi“ umuman dars o'tiladigan joy ma'nosini anglatadi. Islom madaniyati markazlari – madrasalar, kutubxonalar, dorul-ilmlar, ilmiy majlislari, fiqhiy halqalar va falsafiy maktablar Sharq sivilizatsiyasi taraqqiyotida betakror o'rin egallagan ulkan ilmiy muassasalar majmuasidir. Ularning shakllanishi, rivojlanishi va bilim tizimiga aylanish jarayoni islom dunyosining taraqqiy etgan davrlaridagi ijtimoiy-siyosiy ehtiyojlar, diniy-madaniy an'analar, Qur'on va Hadisga asoslangan ma'rifiy ruh, hamda qadimgi Sharq va Yunon falsafasining qabul qilinishi bilan chambarchas bog'liqdir.⁸

Madrasalar tuzilishining dastlabki shakli Payg'ambar (s.a.v.) davridagi Suffa maktabidan boshlanadi. Madinada joylashgan bu ilk ta'lim markazida sahobalar Qur'on, hadis, fiqh, til va yozuvdan saboq olar, bu an'ana keyinchalik masjidlar qoshidagi ilmiy halqalarga aylandi.

VIII–IX asrlardan boshlab masjidlar faqat ibodat joyi bo'lmay, balki ilohiyot, huquq, tilshunoslik, falsafa, matematika, astronomiya va tibbiyot bo'yicha ilmiy markazlar sifatida xizmat qilgan. Bag'doddagi Hayzuroviya, Basradagi Masjid ul-Voziy, Damashqdagi Umaviy masjidi, Qohiradagi Azhar masjidi, Samarqand va Buxorodagi katta jome masjidlarda ilmiy halqalar faol bo'lgan. Islom ilmlarining tizimlashuvi bu davrda shakllandi: Qur'on ilmlari (qiraat, tafsir), hadis ilmlari (diraya, rivoya), fiqh va usul al-fiqh, kalom, arab tili grammatikasi (sarf, nahv), adabiyot, mantiq, falsafa, kimyo, tibbiyot, matematika, nujum kabi dunyoviy ilmlar ham madrasalarda muhim o'rin tutgan.⁹ IX–X asrlar islom sivilizatsiyasining eng ilg'or ilmiy markazlari tashkil topgan davr bo'lib, ulardan eng mashhurlari — Bayt al-Hikma (Bag'dod), Dar al-Ilm (Qohira), Mustansir madrasasi (Bag'dod), Nizomiya madrasalari (Bag'dod, Nishopur, Isfahon, Balx, Marv), Movarounnahr madrasalari (Buxoro, Samarqand, Termiz), Andalusiya ilmiy markazlari (Kurtuba, Granada, Toledo) edi. Bu markazlar ilmning barcha sohalarida yetuk mutaxassislar yetishtirdi. Xalifa Ma'mun tomonidan Bag'dodda tashkil etilgan Bayt al-Hikma nafaqat madrasa, balki ulkan ilmiy akademiya, tarjima markazi, observatoriya va kutubxonadan iborat ilmiy kompleks bo'lib, u yerda yunon, suryoniy, hind va fors manbalari tarjima qilindi, tibbiyot, matematika, astronomiya, falsafa, geografiya singari sohalarda ilmiy tadqiqotlar olib borildi. Bayt al-Hikma atrofida

⁸ Kerenskiy O. M., Medrese Turkestanskogo kraya-SPb., 1892;

⁹ Abdullayev Yu., Ocherki po metodike obucheniya gramote v o'zbekskoy shkole, T., 1966;



Muhammad Xorazmiy, Ahmad Farg'oni, Abu Yusuf Kindiy, Hunayn ibn Ishaq, Sabit ibn Qurra kabi olimlar ishlagan. Xorazmiy algebra fanini mustaqil ilmiy tizim sifatida yaratib, algoritmlar nazariyasining asosiga aylandi, Farg'oni astronomiya, trigonometriya va geodeziyada ulkan kashfiyotlar qildi. Bu ilmiy an'analar Movarounnahr, Xuroson va butun islom olamiga yoyila bordi. Islom ilmiy tizimining shakllanishida fiqh va kalom muhim rol o'ynadi. Fiqh diniy-huquqiy tizimning ilmiy asoslarini yaratdi. Imom A'zam Abu Hanifa, Imom Molik, Imom Shofi'iy, Ahmad ibn Hanbal kabi ulamolar tomonidan ishlab chiqilgan huquq maktablari yuridik tafakkurni rivojlantirdi. Movarounnahrda hanafiylik maktabining mustahkamlanishi Buxoro, Samarqand va Termiz madrasalarining huquqshunoslik markazlari sifatida shakllanishiga sabab bo'ldi. Kalom esa islom aqidasi va falsafiy fikrning birlashuv nuqtasi bo'lib, Moturidiya va Ash'ariya maktablari orqali ilmiy mushohada va mantiqiy tafakkurni rivojlantirdi. Imom Moturidiy va uning izdoshlari Sharqdagi eng yirik aqidaviy-falsafiy maktabni yaratib, mantiq, nazariy tafakkur, isbotlash madaniyatining shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatdi.¹⁰

XI asrda Nizom ul-Mulk tomonidan tashkil etilgan Nizomiya madrasalari esa ta'lim tizimini markazlashtirilgan davlat siyosati darajasiga ko'tardi. Nizomiya madrasalarida Imom G'azzoliy, Abu Ishaq Shiroziy, Imom Haramayniy, Abu Sa'd Nishopuriy kabi mutafakkirlar dars bergan. Bu madrasalar o'quv dasturlarini standartlashtirdi, ta'lim metodikasini belgiladi, talabalar uchun stipendiyalar, ustozlar uchun maoshlar joriy qildi. Madrasa ta'limida dars-halqalar, mudarris, talaba, mujtahid, munozara, ta'liq, ijizatnoma kabi tushunchalar shakllandi. Ustoz-shogird an'anasi ilmning asosiy poydevori bo'lib, ijizatnoma ilmiy litsenziya vazifasini bajargan. O'rta asrlarda islom dunyosida bir nechta yirik ilmiy-madaniy hududlar shakllandi. Sharqning eng kuchli ilmiy markazlaridan biri Movarounnahr bo'lib, Buxoro va Samarqand ilmiy muhitining yuksalishi Somoniylar davridan boshlab kuzatiladi. Buxorodagi Mir Arab, Ulug'bek, Kokaldosh, Abdulazizxon, Tillakori madrasalari, Samarqanddagi Ulug'bek madrasasi, Sherdor va Tillakori majmualari butun islom dunyosida mashhur bo'lgan. Movarounnahr madrasalarida tafsir, hadis, fiqh, arab tili, mantiq, falsafa, tibbiyot, riyoziyot, nujum fanlari o'qitilar edi.

Ulug'bekning astronomiya maktabi, Samarqand rasadxonasi, Qozizoda Rumiy, Ali Qushchi kabi olimlar Sharq ilmiy tafakkurining eng yuqori nuqtalaridan biridir. Ulug'bekning "Zij-i Jadid" astronomik jadvali o'z davrining eng aniq ilmiy asarlaridan biri bo'lib, Yevropada Kopernikgacha bo'lgan davrda ishlatilgan. Xurosondagi ilmiy markazlar – Nishopur, Hirot, Marv va Balx ham ilmiy an'analar taraqqiyotida muhim o'rin tutdi. Hirot Temuriylar davrida ilm-fan, adabiyot va san'at markaziga aylandi. Alisher Navoiyning homiyligi ostida madrasa va kutubxonalar rivojlandi, Jomiy, Xondamir, Davlatshoh Samarqandiy, Binoiy kabi olimlar ilm-fanga boy meros qoldirdi. Andalusiya – islom sivilizatsiyasining g'arbiy qanoti bo'lib, Kurtuba, Seviya, Toledo, Granada kabi shaharlarda ilm-fan jadal rivojlandi. Ibn Rushd, Ibn Tufayl, Ibn Xaldun, Ibn

¹⁰ Abdullayev Yu., Ocherki po metodike obucheniya gramote v o'zbekskoy shkole, T., 1966;



Zuhr, Maslama al-Majriti kabi mutafakkirlar Yevropa Uyg'onish davriga katta ta'sir ko'rsatdi. Andalusiya tibbiyot, falsafa, matematika, musiqa, geografiya va tarix fanlari ayniqsa rivojlangan. Islom madaniyatining ilmiy tizimida falsafa alohida o'rin tutadi. Falsafa nafaqat nazariy bilish vositasi, balki tafakkur madaniyatining shakllanish mexanizmi edi. Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Ibn Rushd, Kindiy kabi mutafakkirlar Aristotel, Aflotun, Plotin falsafalarini sharhlab, ularni islom aqidasi bilan uyg'unlashtirishga harakat qildilar. Forobiy "Ikkinchi muallim" sifatida mantiq, metafizika, siyosiy falsafa sohalarida ilmning eng barqaror tamoyillarini belgilab berdi. Ibn Sino falsafiy tibbiyot, ruhshunoslik, metafizika, mantiq va tabiiy fanlarda yuksak cho'qqiga ko'tarilib, "Shifo", "Najot", "Donishnoma" asarlari bilan Sharq va G'arb tafakkuriga ta'sir ko'rsatdi.¹¹ Falsafiy ta'lim madrasalarda mantiq, kalom, hikmat, falsafiy tibbiyot ko'rinishida o'qitilgan, ammo u doimo diniy ta'lim bilan uyg'unlikda olib borilgan. Islom ilmiy an'anasi dastlabki asrlardan boshlab bilishga nisbatan tafakkur – chuqur anglash, tafaqqud – tekshirish, tadabbur – fikriy mushohada, tadqiq – ilmiy tekshirish metodlari orqali shakllandi. Madrasalarda o'qitilgan usul al-fiqh, mantiq, nahv, balog'at, jadval ilmlari, hisob, nuqush, riyaziyat, hikmat, ilmi-kalom, ilmi-kayhan kabi fanlar ilmiy tafakkurni rivojlantirishning bosh vositalari bo'lgan.¹² Bilim tizimi asosan uch asosiy ustun ustiga qurilgan edi: naqliy ilmlar (Qur'on, hadis, fiqh), aqliy ilmlar (mantiq, falsafa, riyoziyot), tajribiy-ilmiy fanlar (tibbiyot, astronomiya, geografiya, kimyo, mexanika). Bu uchlik ilmiy yondashuvning mukammal modelini yaratib, Sharq ilm-fanining yuksakligiga sabab bo'ldi. Islom ilmiy muassasalari – madrasalar, kutubxonalar, rasadxonalar, dorush-shifo (shifoxona)lar bir-birini to'ldirardi. Masalan, Bag'dod, Qohira, Samarqand, Buxoro, Hirot, Kurtubadagi katta kutubxonalar o'z davrining eng boy kitob xazinalari bo'lib, ba'zilarida yuz minglab qo'lyozmalar mavjud edi.

Al-Azhar, Mustansiriya, Nizomiya, Qaraviyin kabi madrasalar esa asrlar davomida uzluksiz ta'lim bergan. Qaraviyin universiteti hozir ham dunyodagi eng qadimgi ta'lim muassasasi sifatida faoliyat ko'rsatmoqda. Islom ilmiy tizimi falsafiy ildizlari jihatidan bir nechta manbalarga tayanadi: Qur'onning tafakkurga, kuzatishga, fikrlashga chaqiruvchi oyatlari; Hadis va sunnatdagi ilmga rag'bat tamoyillari; qadimgi Sharq ilmiy an'analari (Bobil, Misr, Eron, Hindiston); yunon falsafiy merosi; Movarounnahr va Xurosondagi qadimgi zardushtiy, buddaviy, mahalliy tafakkur unsurlari. Islom ilmiy tizimi aynan shu manbalarni uyg'unlashtira olgani uchun ham o'rta asr dunyosining eng ilg'or va keng qamrovli ilmiy modeliga aylangan. VII–XIII asrlarda islom dunyosi Yevropadan ilmiy jihatdan bir necha bosqich oldinda edi. Algebra, algoritmlar, optika, geodeziya, astronomiya, farmakologiya, tibbiyot, botanika, geografiya, metafizika, mantiq, siyosiy falsafa kabi fanlarning asoslari aynan islom ilmiy an'anasi doirasida mukammallashdi.

¹¹ Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. — Toshkent: Fan, 1993.

¹² Kerenskiy O. M., Medrese Turkestanskogo kraya-SPb., 1892;



Bu ilmiy model keyinchalik Yevropa uyg'onishiga asos bo'ldi. XII–XIII asrlarda Andalusiyada Arab-Lotin tarjimalari orqali Ibn Sino, Forobiy, Ibn Rushd, Xorazmiy, Farg'oniylar asarlari Yevropaga o'tdi. Bu jarayon Yevropa ilm-fanining uyg'onishida hal qiluvchi rol o'ynadi. Islom madaniyati markazlarining yuksak darajadagi ilmiy faoliyati Temuriylar, Ozbekxonlar, Shayboniylar, Buxoro amirligi, Qo'qon xonligi, Xiva xonligi davrlarida ham davom etdi. Madrasalarning o'quv dasturlari rasmiylashtirilib, "Darsnoma", "Mabot ul-ilm", "Kanz ad-daqiq", "Multaqo", "Hidoya", "Sharh Mulla", "Avamil", "Kafiya" kabi asarlar asosiy qo'llanma edi. Bu dasturlar diniy ilmlardan tashqari mantiq, hisobi-hindiy, riyoziyot, geometriya, falakiyot singari fanlarni ham o'z ichiga olardi.

Xulosa qilib aytganda, islom madaniyati markazlari — madrasalar, rasadxonalar, kutubxonalar, dorul-ilmalar nafaqat diniy ta'lim muassasalari, balki umumilmiy taraqqiyotning markazlari bo'lgan.

Ular Sharq sivilizatsiyasining ilmiy-madaniy yuksalishiga asos soldi, ulkan mutafakkirlar, qomusiy olimlar, mufassirlar, muhaddislar, faqihlar, faylasuflar, tabiblar, matematiklar va astronomlar yetishtirdi.

Bu markazlar nafaqat ilmiy bilishning shakllanishida, balki falsafiy tafakkurning rivojlanishida, jamiyatning madaniy-ma'naviy taraqqiyotida ham beqiyos o'rin tutdi.

Islom ilmiy an'anasi tarixiy manbalar, yirik mutafakkirlarning asarlari, uzluksiz madrasaviy ta'lim, ustoz-shogirdlik tizimi, falsafiy mushohada, tajriba va tadqiqot asosida shakllangan yuksak ilmiy meros bo'lib, bugun ham ilm-fan tarixining eng nufuzli bosqichlaridan biri sifatida o'z ahamiyatini saqlab kelmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Kerenskiy O. M., Medrese Turkestanskogo kraya-SPb., 1892;
2. Abdullayev Yu., Ocherki po metodike obucheniya gramote v o'zbekskoy shkole, T., 1966;
3. Abu Bakr Muhammad Narshaxiy, Buxoro tarixi, T., 1991;
4. Shamsutdinov R. T., Rasulov B., Turkiston maktab va madrasalari tarixi (XIX asr oxiri va XX asr boshlari), Andijon, 1995.
5. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. — Toshkent: Fan, 1993.
6. Ibn Sino. Kitob ash-Shifo'. — Qohira nashrlari, turli yillar.
7. Abu Rayhon Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. — Toshkent: Fan, 1968.
8. Abu Rayhon Beruniy. Hindiston. — Toshkent: Fan, 1965.
9. Imom Moturidiy. Kitob at-Tavhid. — Istanbul: Diyanet nashri, 2003
10. Imom G'azzoliy. Ihyo ulum ad-din. — Bayrut: Dar al-Fikr
11. Ibn Xaldun. Muqaddima. — Bayrut: Dar al-Kutub al-Ilmiyya, 2004.
12. Ibn Rushd. Tahafut at-Tahafut. — London: Gibb Memorial Series.



13. George Sarton. Introduction to the History of Science. — Baltimore: Williams & Wilkins, 1927–1948.